




Namozdagi farz amallar

insta :
ethalimd



NAMOZDAGI FARZ AMALLAR

Namozdagi farz amallar o'n ikkitadir:

bularning oltitasi namoz tashqarisida bo'lib, ular «namozning shartlari» deyiladi.

Qolgan oltitasi namoz ichida bo'lib, ular «namozning ruknlari» deyiladi.

Namoz farzlaridan birortasi tark etilsa, namoz buziladi. Shuning uchun ham farzlarni o'rniga qo'yib, ularga qat'iy amal qilish lozim.

Namozning shartlari quyidagilar:

1. Badanning pok bo'lishi (g'usl yoki tahorat qilingan bo'lishi);
2. Kiyimning pok bo'lishi va avratni berkitishi;
3. Namoz o'qiladigan joyning pok bo'lishi;
4. Namoz vaqtining kirishi;
5. Namozni qiblaga yuzlanib o'qish;
6. Niyat qilish;

Izoh: ayrim ulamolar «satri avrat»ni (avrat joylarni yashirishni) alohida shart deb hisoblashadi)

Namozning ruknlari quyidagilar:

1. Takbir tahrira («Allohu akbar» deb namozga
2. Qiyom (turish)
3. Qiroat (namozda Qur'on suralari yo oyatlarini)
4. Ruku' (tizzalarni ushlab engashish)
5. Sajda (ikki bor peshonani yerga qo'yish)
6. Qa'dai oxir (oxirgi o'tirish)

“Mo'minning me'roji” NAMOZNING VOJIBLARI

Quyidagilar namozdagi vojib amallar hisoblanadi:

-farz namozlarining hamma rakatlarida Fotiha surasini o'qish;

-farz namozlarining avvalgi ikki rakatida, vojib, sunnat, nafl namozlarining har bir rakatida Fotiha surasidan so'ng Qur'on suralaridan birini yoki uchta oyatni zam qilish, ya'ni qo'shib o'qish;

-bir namozda takrorlanadigan sajdada va ruku' kabi namoz ruknlarini o'z o'rnida tartib bilan bajarish;

-uch, to'rt rakatli namozlarning ikkinchi rakatidagi o'tirishda va namoz oxiridagi o'tirishda tashahhud, ya'ni «Attahiyat»ni o'qish;

-namoz oxirida “Assalomu alaykum va rohmatulloh” deya salom lafzi bilan chiqish;

-sajdada burun va peshonaning baravar yerga tegib turishi;

-vitr namozining oxirgi rakatida “Qunut duosi” ni o'qish;

-Ramazon va Qurbon hayiti namozlarining har rakatida uchtadan qo'shimcha takbir aytish;

-uch va to'rt rakatli farz namozlarining avvalgi ikki rakatida zam sura qiroat qilish;

-ruku'da, sajdada, qovmada va jalsada a'zolarining taskin topishi;

-namozdagi vojib amallardan birortasi esdan chiqib tark qilinsa, sajdai sahv qilish;

-imom namozga o'tganda ovoz chiqarib o'qiladigan namozlarni jahriy, ovoz chiqarmay o'qiladigan namozlarni esa maxfiy o'qishi;

□ Izoh: imom juma, ikki hayit, bomdodning farzida, shom va xufton namozlarining avvalgi ikki rakatida, taroveh namozida ovoz chiqarib qiroat qiladi. Namozni yolg'iz o'qiydiganlar uchun jahriy yoki maxfiy o'qish ixtiyoriy, ya'ni bomdod, shom, xuftonning farzlarida jahriy qiroat qilishi mumkin. Qazo namozini yolg'iz o'qiganda maxfiy o'qish vojib. (Namozda jahriy qiroatning eng past darajasi yonidagi kishi eshitadigan qilib o'qishdir. Maxfiy namozda namozxon o'z qiroatini o'zi eshitmasa, qiroat hisob bo'lmaydi. Tilini qimirlatishi yoki dilidan o'tkazishi qiroat hisoblanmaydi)

“Mo’minning me’roji”

@manfaatlii **Namozning sunnatlari**□

Sunnat-Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qilgan amallari. Sunnat amalini qilgan kishi savob topadi. Qilmagan kishi gunohkor bo'lmasa-da, qiyomat kuni malomatga qoladi, Payg'ambarimiz shifoatlariga loyiq bo'lmaydi.

1.«Takbiri tahrira» («Allohu akbar»)da qo'Ining barmoqlarini o'z holida ochiq tutib quloq barobarida ko'tarish(juda ixtilofli mavzu), so'ng qo'llarni kindik ostida bog'lash;

2. Takbirdan so'ng «Sano» o'qish;

3. «Sanondan so'ng «A'uuzu billah» va har rakatda Fotihadan oldin «Bismillah....»aytish;

4. Fotiha surasi tugagach, maxfiy tarzda «Omin» deyish;(Hanafiy mazhabiga ko'ra)

5. Imomning ruku'dan keyin «Sami'allohu liman hamidah» iqtido qilganlarning esa «Robbana lakal-hamd» deyishlari (namozni yolg'iz o' qiganlar ikkalasini ham aytadi);

6. Namozda ruknlarning biridan ikkinchisiga o'tayotganda «Allohu akbar» deyish;

7. Ruku'da qo'l barmoqlarini yoyib, ikki tizzani mahkam changallash va kamida uch marta«Subhana robbiyyal 'aziyim» deyish (bunda ayollar barmoqlarini tizza ustida jips tutishadi, tizzalarini biroz bukishadi);

8. Sajdada peshonani qo'llar orasiga olish, barmoqlarni jipslab, bosh barmoqni quloq to g'risida ushlab;

9. Sajdada erkaklarning oyoqlari, tizzalari, qo'llari, peshonasi, burni yerga tegib turishi, bilaklarini yerga ham, qovurg'asiga ham tekkizmay tutishi (ammo ayollar bu aytilganlarga qo'llarini tekkizib, yig'ilibroq sajda qilishadi);

10. Erkaklarning chap oyoq ustiga o'tirishi, o'ng oyog'ini tiklab, barmoqlarini qiblagga qaratishi;

11. Qa'dada salavot, Robbana aatinaa..." kabi duolarni o'qish;

12. Avval o'ng, so'ngra chap tomonga salom berish;

13. Farz namozlarini jamoat bo'lib o' qish;

“Mo’minning me’roji”

@manfaatlii **NAMOZNING MUSTAHABLARI**

Mustahab-Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ba'zan bajargan va ba'zan bajarishni lozim ko'rmagan amaldir. Uni qilgan kishi savob topadi. Ammo qilmasa, gunohkor bo'lmaydi. Qiyomat kuni azob va malomatga ham qolmaydi.

1. Namozda esnoq va yo'tal kelsa, kuchi yetganicha qaytarish.
2. Ixtiyorsiz esnoq kelganida o'ng qo'l orqasi bilan og'izni bekitish va Payg'ambarlarning hech biri esnamaganlarini o'ylash(p/s:natijani ko'rasiz).
3. Muqim (safarda bo'lmagan) kishining Fotiha surasidan so'ng bomdod namozida uzunroq, shom namozida qisqaroq, boshqa namozlarda esa o'rtacharoq suralarni o'qishi.
4. Namozdagi zikrlarni tajvid qoidalariga muvofiq o'qish
5. Sajdaga borganda avval tizzani, qo'lni, keyin peshonani, so'ng burunni yerga qo'yish (sajdadan bosh ko'targanda aksincha bo'ladi).
6. Sajdada barmoq oralarini zichlash, boshni ikki qo'l orasiga, bosh barmoqni quloq to'g'risiga qo'yish, qo'l barmoqlarining uchini va oyoq panjalarini qiblaga qaratish
7. Salomdan so'ng yuzning ter va changini artmaslik.
8. Takbir uchun qo'l ko'targanda qo'lni yengdan chiqarib, bosh barmoqning yuzini quloq barobariga ko'tarish (ayollar qo'lni yengdan chiqarmay, yelka to'g'risigacha).
9. Qiyomda qo'l bog'langanda o'ng qo'Ining bosh va chinchaloq barmoqlari bilan chap qo'Ining bo'g'imidan ushlab, uch o'rta barmoqni chap qo'l bilagi ustiga yotqizib turish.
10. Namozni yolg'iz o'qiganda ruku' va sajdalarda tasbeh miqdorini oshirib,5,7,9 martadan aytish.
12. Qiyomda sajda o'rniga, ruku'da oyoq barmoqlariga, sajdada burunga, qa'dada(o'tirishda) ko'ksiga qarab o'tirish.
13. Namozda tavoze' va shikastalik bilan turish.
14. Namozga kechikib qo'shilgan kishining qolgan rakatlarga turish uchun imomning ikki tarafga salom berishini kutishi.

“Mo'minning me'roji” kitobidan

@manfaatli **NAMOZNI BUZUVCHI AMALLAR**

1. Namozda gapirish (qasddan yoki adashib bo'lsa ham).
2. Kishiga salom berish.
3. Salomga alik olish.
4. Uzrsiz tomoq qirish, yo'talish.
5. «Uh, uf, oh» kabi tovushlar chiqarish.

6. Og'riq yoki musibatga ovoz chiqarib yig'lash (ammo oxiratni o'ylab yig'lasa, joiz).
 7. O'zi eshitadigan darajada kulish (qahqaha bilan qattiq kulsa , tahorati ham ketadi).
 8. Aksa urganida javob qaytarish (ya'ni «Yarhamukalloh" deyish).
 9. Savolga yoki xabarga oyatlar bilan bo'lsa-da, javob berish(masalan, kimdir gapirganda qiroatni birdan baland qilish).
 10. Biror narsani yeb-ichish (labidagi, tishidagi ovqatni ham).
 11. Namozni jamoat bilan o'qiyotganida yonidagi odamga joy berish uchun surilish.
 12. Qiroatni Qur'oni karimga qarab qilish.
 13. Amali kasir» qilish (ya'ni ko'rgan odam "Namoz o'qimayati" deb o'ylaydigan darajadagi amallarni qilish).
 14. Najosat ustiga sajda qilish.
 15. Ko'krakni qibladan boshqa tarafga burish.
 16. Sajda holida ikki oyoq panjalarini yerdan ko'tarish.
 17. Qiroatni ma'no o'zgaradigan darajada buzish.
 18. Namoz farzlaridan birortasini uzrsiz qoldirish.
 19. Namozning to'la bir ruknida avratning ochiq bo'lishi.
 20. Tahoratning (tayammum, mashning ham) ketishi.
 21. Bomdod namozida quyosh chiqib qolishi.
 22. Namoz asnosida hushidan ketishi.
- “Mo’minning me’roji”
23. Namoz harakatlaridan tashqari 2 marta ortiqcha harakat qilish(masalan,kiyimni 2 martadan oshiq to'g'irlasa namoz buziladi).

@manfaatlii **QAZO NAMOZLARI QANDAY O'QILISHI !**

Besh vaqt namozni o'z vaqtida o'qish "ado", uzrli sabab bilan vaqti o'tganidan keyin o'tash "qazo" deyiladi. Uzrli sabab bilan vaqtida o'qilmagan farz va vitr namozlarining qazosi o'qiladi(Vitr-Hanafiy mazhabida vojib). Juma, hayit (iyd), janoza, sunnat namozlarining qazosi o'qilmaydi. Faqat bomdod namozining sunnati o'sha kuni tushgacha farzi bilan birga o'qiladi Farz namozlarini o'z vaqtida o'qish qat'iy lozimdir. Kim namozning vaqtini uzrsiz o'tkazib yuborsa, gunohi kabiralardan birini qilib, qattiq gunohkor bo'ladi. Qur'oni karimda shunday marhamat qilinadi: "**Albatta,namoz mo'minlarga vaqtida farz qilingandir**"(Niso surasi, 103-oyat)

Ammo ba'zi uzrlar sababi bilan namoz qazo bo'lishi mumkin. Bu uzr 2 xil bo'ladi:

1. Qazosi o' qilmaydigan uzrlar:

a) *hayz va nifos ko'rgan ayollar namozni tark qilishadi, pok bo'lishgandan keyin ham qazo bo'lgan namozlarini namoz mo'minlarga vaqtida farz qilingandir o'qishmaydi.*

b) *kamida olti vaqt namoz muddatida hushidan ketib o'ziga kelmagan ham o'ziga kelgach, qazo bo'lgan namozlarini o'qimaydi. Lekin bundan kam fursatda o'ziga kelsa qazo bo'lgan namozlarini o'qish unga vojib bo'ladi.*

2. Qazosi o'qiladigan namozlar:

Uxlab qolish, esidan chiqish, g'aflatda qolish, boshini ham qimirlata olmaydigan darajada kasal bo'lish kabi uzrlar bilan namoz o'z vaqtida ado qilinmasa, uning qazosini o'qish vojib bo'ladi. Qazo namozlarini o'qishni beuzr kechiktirish joiz emas. Rizq topishga harakat, farz ilmlarini talab qilish, o'ta och qolgan kishilarning ovqatlanib olishi, nihoyatda charchagan kishining uxlab olishi kabilar qazo namozlarini kechiktirishning uzrlari hisoblanadi. Nafl namozlarining o'rniga qazolarni o'qish afzaldir. Lekin sunnati ravotiblarni tark qilmagan ma'qul. Agar qazoni kechiktirish beuzr bo'lsa, o'sha qazoni o'qimaguncha undan gunoh ko'tarilmaydi. Xuddi namoz ham tavbasiz qabul bo'lmaganidek, namozni qazo qilgan kishiga ham tavba lozim bo'ladi. Tavbaning shartlaridan biri gunohni tark qilish edi. Qazo namozlarini uzrsiz o'qimay yurgan kishi gunohni tark qilmayotgan tavba qiluvchiga o'xshaydi.

Demak, uning tavbasi maqbul emas. Shariatda (ahli tartiblar) degan martabadagi insonlar bo'lib, ular vitrdan tashqari olti vaqt namozni ketma-ket qazo qilmagan bo'lishadi. Shular qazo namozlarini o'qimoqchi bo'lishsa, tartibga rioya qilishlari kerak.

Misol uchun, ahli tartib kishi bomdod, peshin, asr, shomni uzr bilan qazo qilib qo'ygan bo'lsa, avval bomdodni, keyin peshinni undan song asrni, keyin esa shomni o'qishi vojib bo'ladi va hokazo. Agar bomdodning qazosini o'qimay, peshinning qazosini o'qisa, peshin buziladi va bomdodning qazosini o'qigach, yana peshinni qaytadan o'qishi vojib bo'ladi.

Ahli tartib vitrga ham rioya qiladi. Ya'ni, unga vitrni o'qimasdan bomdodni o'qishi durust emas. Ammo, qachonki, qazo namozlarining soni vitrdan tashqari olti vaqtga yetsa, endi u kishidan tartibga rioya qilish vojibliigi soqit bo'ladi. Shunda ham tartib bilan qazolarni o'qisa ma'qul, lekin xohlaganini oldin, xohlaganini keyin o'qishiga ixtiyori bo'ladi.

Tartibning vojibliigi yana ikki holatda soqit bo'ladi:

1. *Vaqt ziq bo'lib bo'lganda qazoni o'qisa, o'z vaqtida o'qiladigan namoz ham qazo bo'lsa, shunda tartib soqit bo'ladi va qazo bo'lmagan namozni oldin, qazo bo'lganini keyin o'qib qo'yadi*

2. *Qazo bo'lgan namozni esdan chiqarib qo'ysada keyin namozni o'qisa ham, tartib soqit bo'ladi. Misol uchun, bomdodni qazo qilib qo'ygani esidan chiqib, peshinni oz vaqtida o'qib qo'ysa, peshindan so'ng bomdodning qazosini o'qib qo'yadi, peshinni esa qaytarib o'qimaydi.*

@manfaatli **Tahajjud namozi**

Bu namozning ozi 2, ko'pi 8 rakatdir.
Alloh taolo bunday degan:

“Kechasida tahajjud(namozi)qil, senga nofila bo’lur. Shoyadki,Robbing seni Maqomi mahmudda tiriltirsa”

Ushbu oyat ila tahajjud namoziga targ’ib qilish Qur’onda kelgani eslatilmoqda. Kechasi bir uxlab turib o’qiladigan namoz “tahajjud namozi” deb ataladi. Shuningdek, bu namoz “qiyom namozi” deb ham ataladi. Avval boshida bu namoz vojib bo’lgan edi, bir yilchadan keyin vojibligi nasx qilingan.

Abu Umoma roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Payg’ambar sollallohu alayhi vasallam:”Sizlarga kechaning qiyomi lozimdir. Chunki u sizlardan oldingi solihlarning odati. U Robbingizga qurbatdir, yomonliklarga kafforatdir, gunohlarni qaytaruvchidir”, dedilar”. Boshqa bir rivoyatda:”U jismdan dardni quvuvchidir”,ham deyilgan. (Termiziy,Ahmad,Hokim)

Nafil namozlarining eng afzali tahajjud hisoblanadi. Chunki bu namoz hamma uxlab yotganda o’qilgani uchun riyodan uzoq,ixlosga yaqin bo’ladi.

Izoh:Tahajjud xuftondan so’ng uxlab, kechaning ikkinchi yarmida bedor bo’lishdir. Uyg’onishiga ishonchi bo’lmasa, xufton namozidan keyin o’qib olsa ham joiz. Raddul muhtor sohiblari tahajjud namoziga:”Har bir xuftondan keyin o’qilgan namoz” deb ta’rif bergan. Afzali esa, bir uxlab turib o’qishdir.

“Mo’minning me’roji”

@manfaatli